Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIALASHTIRISHNING XALQARO MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	872
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna	
SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYA JARAYONINING XUSUSIYATLARI	877
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	884
Kadirova L.G.	
MAIN DIRECTIONS FOR DEVELOPING SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION	887
Nasretdinova Farangis Odilovna	
THE IMPORTANCE OF MARKETING COMMUNICATIONS IN THE SERVICES SECTOR	895
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG'BATLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI	900
Mustafoev G'olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	906
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	911
Salimova Husniya Rustamovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA	918
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIYAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI	926
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI	932
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срождиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshukur G'ayratovich	



SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI



Sultonov Xudoyshukur G'ayratovich

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

E-mail: sultonovxudoyshukur@gmail.com.

ORCID: 0009-0004-4910-3120

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug'oriladigan yerlarning ekologik holati hamda ularning iqtisodiy muhitini jahon tajribasi asosida yaxshilash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, respublikamizda sug'oriladigan yerlarning ekologik holatini yaxshilash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, iqtisodiy mexanizm, sug'oriladigan yerlar, takomillashtirish, ekologik holat, modernizatsiya, fermer xo'jaligi.

Abstract. This article analyzes the issues of improving the ecological condition of irrigated lands and their economic environment based on international experience. It also substantiates ways to achieve economic efficiency by enhancing the ecological condition of irrigated lands in Uzbekistan.

Key words: economic efficiency, economic mechanism, irrigated lands, improvement, ecological condition, modernization, farming enterprises.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы улучшения экологического состояния орошаемых земель и их экономической среды на основе мирового опыта. Также обоснованы пути повышения экономической эффективности за счёт улучшения экологического состояния орошаемых земель в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: экономическая эффективность, экономический механизм, орошаемые земли, совершенствование, экологическое состояние, модернизация, фермерское хозяйство.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim sohasi bo'lib, unda insoniyat hayoti uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari hamda aholi uchun iste'mol buyumlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari uchun xomashyo yetishtiriladi.

Bugungi kunda jahon yer fondi 13,4 mlrd gektarni tashkil etadi. Uning atigi 1,5 mlrd gektari, ya'ni qariyb 11 foizi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Ushbu yerlarning miqdori va sifati tabiiy hamda antropogen omillar va jarayonlar ta'sirida yildan-yilga kamayib bormoqda.

Demak, global oziq-ovqat muammosini hal etish va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan cheklangan yer resurslarining samaradorligini oshirish kelgusida ekstensiv emas, balki intensiv omillardan foydalanishni taqozo etadi. Shu bilan birga, yer mulkdorlari va ijarachilarining qishloq xo'jaligi yerlaridan intensiv foydalanishga investitsiyalarni jalb etish, yerlarning unumdorligini saqlash va oshirish, umuman, yerlarning resurs sifatidagi funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiluvchi samarali tizimni shakllantirish hamda uni doimiy ravishda tartibga solib borish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yer resurslaridan foydalanish tizimida iqtisod fanlari doktori, professor, Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi N.V. Komov yer har qanday ishlab chiqarish vositasi singari xo'jalik yuritish obyekti sifatida xo'jalik subyektlari faoliyat yuritish me'yorlarini belgilovchi tartib-tamoyillar ta'sirida bo'lishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u ishlab chiqaruvchi kuchlarning ko'plab unsurlari tarkibidan yer resurslarini ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlar doimo harakatda bo'lishini qayd etadi.

Mazkur yondashuvni u, birinchidan, yer nafaqat ishlab chiqarishning, balki umuman inson hayotining moddiy makoniy asosi ekanligi; ikkinchidan, yerning o'ziga xos tabiiy quvvati ishtirokisiz yaratilmaydigan mahsulotlar ko'rinishida yangi qiymatlarni yaratish qobiliyatiga egaligi; uchinchidan esa, yerning tabiiy cheklanganligi va uni sun'iy ravishda ko'paytirishning imkonsizligi bilan asoslaydi.

Demak, N.V. Komovning mazkur xulosalari yerni qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi va omili sifatida boshqa ko'plab resurslardan ajratib ko'rishni hamda ushbu xususiyatlarni sug'oriladigan yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda hisobga olish zarurligini taqozo etadi.

Iqtisodchi olim, akademik F.Q. Qayumov esa yerni jamiyatning moddiy bazisi, uning obyektiv borlig'i sifatida talqin etadi. U yer yo'q qilinmaydigan, takror ishlab chiqarilmaydigan va inson mehnati mahsuli bo'lmagan resurs ekanligini ta'kidlab, shu bilan birga yerda ijtimoiy munosabatlar mujassamlashganligini asoslab beradi.

J.A. Allan o'z tadqiqotlarida suv resurslarining cheklanganligi va ularni samarali boshqarish zarurligini ilmiy asosda yoritadi. Ayniqsa, uning "virtual suv" konsepsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu yondashuvga ko'ra, har qanday mahsulotni ishlab chiqarishda ma'lum miqdorda suv sarflanadi va bu suv yashirin tarzda mahsulot tarkibida mujassam bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish katta hajmdagi suv resurslarini talab qiladi. Shu sababli, suv tanqis hududlar oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish orqali o'z suv resurslarini tejashi mumkin. Allan ushbu konsepsiya orqali suv resurslari va xalqaro savdo o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib bergan.

R. Keller esa yer ekologiyasi va tabiiy resurslardan foydalanish muammolarini o'rgangan. U yer resurslarining degradatsiyasi, xususan, tuproq eroziyasi va sho'rlanish jarayonlarining ekologik hamda iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilgan. Kellerning ilmiy qarashlarida yer, suv va biologik resurslarning o'zaro bog'liqligi muhim o'rin egallaydi. U ekotizim yondashuvini ilgari surib, qishloq xo'jaligida ekologik muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy usul hamda sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish maqsadida taqqoslash, tizimli tahlil va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, abstrakt va mantiqiy fikrlash, ijtimoiy so'rov o'tkazish hamda monografik kuzatuv uslublari qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida mavjud iqtisodiy va ekologik indikatorlar, ilmiy manbalar hamda "yashil iqtisodiyot" bo'yicha ilg'or tajribalar o'rganilib, yer resurslarining ekologik holatini boshqarish mexanizmining samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi yer resurslaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik, ularni tarmoq ichida va tarmoqlararo taqsimlash hamda qayta taqsimlashning samarasizligi, yerlarni noqishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun iqtisodiy va texnologik jihatdan asoslanmagan holda ajratilishi, eng achinarlisi esa sug'oriladigan yerlar unumdorligining pasayib, ekologik holatining yomonlashib borayotgani kuzatilmoqda.

O'zbekistonda qabul qilingan yer munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qator qonun hujjatlari va me'yoriy aktlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sug'oriladigan yerlarning samaradorligini oshirish, ularning ekologik holatini yaxshilash hamda yerlarni qayta tiklashning iqtisodiy mexanizmini joriy etish orqali ushbu sohadagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishdan iboratdir.

Biroq, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda sug'oriladigan yerlardan foydalanishni isloh etishning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmoqlarida, xususan, ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga to'liq erishilmayapti. Shu bois, sug'oriladigan yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solishning istiqbolli mexanizmlarini ishlab chiqish, uning tarkibiy elementlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va boshqa yer foydalanuvchilari manfaatlariga mos holda takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish zarurati ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida sug'oriladigan yer resurslaridan foydalanish va ularning ekologik holatini yaxshilashning iqtisodiy mexanizmlarini yaratish hamda takomillashtirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, yerlarning cho'llanishi, iqtisodiy unumdorlikning pasayishi, investitsiya taqchilligi,



degradatsiya jarayonlarini boshqarishda iqtisodiy omillar rolini kuchaytirish hamda qishloq xo'jaligi yerlarining muomaladan chiqib ketishining oldini olish kabi masalalar muhim yo'nalishlar sifatida ajralib turadi.

Jahon amaliyotida sug'oriladigan yer resurslaridan foydalanish tizimini takomillashtirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Bunda jamiyatning moddiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi va tuproq unumdorligini takror ishlab chiqarish zarurati asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda kichik yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi subyektlar aholining qariyb 25 foizini tashkil etadi. Fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan ekin maydonlari jami ekin maydonlarining 84,4 foizini tashkil etib, ushbu yerlardan foydalanuvchilar umumiy aholining 6,2 foiziga teng (1710,2 ming kishi).

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 82-moddasiga ko'ra, yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni iqtisodiy rag'batlantirish yer egalari, foydalanuvchilari va ijarachilarning manfaatdorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu mexanizm quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- yangi o'zlashtirilayotgan va meliorativ holati yaxshilanayotgan yerlarga soliq imtiyozlari berish;
- yerlarni muhofaza qilish va tiklash faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarni rag'batlantirish;
- ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy etish va yer unumdorligini oshirish;
- buzilgan yerlarni tiklash uchun davlat mablag'larini jalb etish;
- yerlarni konservatsiya qilish natijasida yuzaga kelgan zararlarni qoplash.

Dehqon xo'jaliklari, tomorqa va bog'dorchilik subyektlari jami qishloq xo'jaligi yerlarining 12,5 foizini egallab, aholining 12 foizini daromad bilan ta'minlamoqda. Shu bilan birga, tomorqa yerlariga ega bo'lmagan yoki yetarli yer maydoniga ega bo'lmagan aholi qatlamlari uchun qo'shimcha sug'oriladigan yer ajratish amaliyoti joriy etilgan.

Biroq, yer resurslaridan foydalanuvchilarni to'liq ta'minlash har qanday jamiyatda murakkab masala bo'lib qolmoqda. Shu sababli asosiy vazifa — yer resurslarini samarasiz foydalanayotgan subyektlardan samarali faoliyat yurituvchi subyektlarga qayta taqsimlashning samarali mexanizmini ishlab chiqish va uni takomillashtirib borishdan iboratdir. Mazkur mexanizm bozor tamoyillariga mos kelishi lozim.

Ma'lumki, O'zbekiston yer fondining qariyb 9 foizini ekin maydonlari tashkil etadi, shundan 7,5 foizi sug'oriladigan yerlardir. Bugungi kunda har bir gektar sug'oriladigan yerga o'rtacha 7,1 kishi to'g'ri kelmoqda, bu esa xalqaro me'yorlarga nisbatan yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Shuningdek, aholi sonining tez o'sishi natijasida sug'oriladigan yerlarning jon boshiga to'g'ri kelish darajasi kamayib bormoqda: 1990-yillar boshida 0,23 ga bo'lgan bo'lsa, 2000-yillarda 0,17–0,19 ga, hozirgi kunda esa 0,10–0,12 ga ni tashkil etmoqda.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bir kishiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydoni, gektar (2026 yil 1 yanvar holatiga)

O'zbekistonda yer resurslaridan foydalanish tizimini shakllantirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, sug'oriladigan yer maydonlari barqaror oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Butun dunyoda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qariyb 40 foizi irrigatsiya tizimlari orqali, qolgan qismi esa yomg'irnatib va tomchilatib sug'orish orqali yetishtiriladi. Shu bilan birga, eng yuqori hosildorlik aynan sug'oriladigan yerlar hissasiga to'g'ri keladi. So'nggi yillarda sug'orish tizimlari bilan jihozlangan yerlar ulushi oshib, 2000-yildagi 21,2 foizdan 2010-yilda 23,2 foizga, hozirgi kunda esa 25 foizdan ortiq darajaga yetgan.

Sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish jahon oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) hisob-kitoblariga ko'ra, ekologik holati yaxshilangan sug'oriladigan yerlar maydonini qo'shimcha 110 mln gektarga kengaytirish orqali 1,5–2 mlrd aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash imkoniyati mavjud.

Sug'orish tizimlari asosan ikki turga bo'linadi: yirik ko'lamli va kichik ko'lamli tizimlar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq kichik irrigatsiya tizimlari qo'llaniladi, chunki ular iqtisodiy jihatdan samaraliroq va moslashuvchan hisoblanadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida texnika va texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tarixiy jihatdan qaranganda, XIX asr boshlarida dunyoda atigi 8 mln gektar yer sug'orilgan bo'lsa, XX asr boshlarida bu ko'rsatkich 40 mln gektarga, asr o'rtalarida esa 100 mln gektarga yetgan. O'tgan asr oxirlariga kelib sug'oriladigan yerlar maydoni 220 mln gektardan oshib, umumiy haydalma yerlarning qariyb 16 foizini tashkil etgan.

Hududlar kesimida sug'oriladigan yerlar ulushi turlicha: Afrikada 4 foiz, Janubiy Osiyoda esa 40 foizdan ortiqni tashkil etadi. Hindiston va Xitoy kabi mamlakatlarda sug'oriladigan yerlar ulushi 30–50 foiz atrofida.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va o'sishining asosiy manbalaridan biri yer resurslari hisoblanadi. Shu bois, davlatlar yer resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish tizimini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etadi. Yerning ko'p qirrali funksiyalari esa huquqiy, iqtisodiy, ekologik va texnologik jihatlarni qamrab oluvchi kompleks boshqaruvni talab etadi.

Shu bilan birga, sug'oriladigan yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish va uni takomillashtirish jahon amaliyotida doimo dolzarb masala bo'lib kelgan. Ayniqsa, ushbu mexanizmni rag'batlantiruvchi iqtisodiy vositalar bilan boyitish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda ayrim mamlakatlarda sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, AQSH qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallab, don, makkajo'xori va boshqa ekinlar yetishtirishda yuqori natijalarga erishmoqda.

Bundan tashqari, transchegaraviy suv resurslariga bog'liqlikni kamaytirish maqsadida ayrim davlatlar yangi suv omborlari qurish va irrigatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlarning degradatsiyasi, tuproq unumdorligining pasayishi kabi muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa hosildorlikning kamayishiga va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun sug'oriladigan yer resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, yer kadastri tizimini takomillashtirish hamda yer resurslarini boshqarishning kompleks mexanizmlarini joriy etish zarur. Hozirgi kunda ushbu yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlar yetarli darajada emasligi sababli, sug'oriladigan yerlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun mukammal iqtisodiy mexanizm ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan muammolardan kelib chiqib, rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur tahlil qilish hamda respublikamiz hududidagi sug'oriladigan yerlarning ekologik holatini tiklash, ulardan yuqori hosil olish va yaroqsiz holga kelib qolgan yerlarni qayta muomalaga kiritishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masala hisoblanadi.

Jahon tajribasi asosida respublikamiz hududidagi sug'oriladigan yerlarning ekologik holatini yaxshilash, ulardan samarali foydalanish orqali yuqori hosildorlikka erishish hamda muomaladan chiqib ketgan yerlarni qayta tiklash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- sug'oriladigan yerlarning ekologik holatini kategoriyalar bo'yicha ommaviy baholash uslubiyotini ishlab chiqish;
- ekologik me'yorlarning buzilishi natijasida yuzaga keladigan cho'llanish, eroziya, unumdor qatlamning degradatsiyasi, sho'rlanish, botqoqlanish, suv bosishi, texnogen ifloslanish va yaylovlar degradatsiyasining doimiy monitoringini yo'lga qo'yish;



– sugʻoriladigan yer resurslaridan foydalanishni hududlar kesimida kompleks va tizimli tashkil etish;
– sugʻoriladigan yerlarda bino-inshootlar qurilishi yoki ularni oʻzboshimchalik bilan oʻzlashtirishni davlat tomonidan qatʼiy tartibga solish va nazoratni kuchaytirish;
– sugʻoriladigan yerlardan olinadigan daromadning maʼlum qismini ularning ekologik holatini yaxshilashga yoʻnaltirish.

Oʻzbekistonda sugʻoriladigan yerlar qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining qiymat jihatidan qariyb 95 foizini taʼminlaydi. Shu bois sugʻoriladigan yerlar milliy iqtisodiyotning strategik resursi, “oltin fond”i sifatida qaralishi zarur. Har bir gektar yerdan samarali foydalanish, hosildorlikni muttasil oshirib borish hamda zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Abdugʻaniyev A., Abdugʻaniyev A.A. Qishloq xoʻjalik iqtisodiyoti. – Toshkent: TDIU, 2004. – 84 b.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati toʻgʻrisida milliy hisobot. – Toshkent: “Yergeodezkadastr” davlat qoʻmitasi, 2017.
3. Ahmadaliyev Yu.I. Yer resurslaridan foydalanish geoeologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – B. 187–210.
4. Altiyev A.S. Fermerlik — yer resurslaridan foydalanishning samarali shakli // “Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi” agrar-iqtisodiy ilmiy-ommabop jurnali. – Toshkent, 2007. – № 4. – B. 20.
5. Sultonov X.Gʻ. Effectiveness of attracting investments in improving the ecological condition of irrigated lands // Ekonomika i sotsium. – 2022. – № 4-1 (95). – B. 56.
6. Sultonov X.Gʻ. Oʻzbekistonda sugʻoriladigan yerlar ekologik holatini yaxshilash yuzasidan mavjud iqtisodiy mexanizmning tahlili va xususiyatlari // Educational Research in Universal Sciences. – 2025. – № 6. – B. 4–10.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
